

**BADIY ADABIYOTDA ERKAKLAR VA AYOLLAR NUTQIDAGI O'ZIGA
XOSLIKlar("O'TKAN KUNLAR" ROMANI MISOLIDA)**

Abduolimova Mohipari

ADUPI 1-bosqich magistranti

+99890-301-66-53

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tushunchasi haqida va bu sohada qilingan olimlarning ishlari, ayollar va erkaklar nutqidagi o'ziga xosliklar va ularning badiiy adabiyotdagi namunalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: gender, gender tilshunoslik, jins, jamiyat, til, lisoniy birlik, ayollar nutqi, erkaklar nutqi.

Mustaqillik davri talabi O'zbekistonda o'zbek tilshunosligening hozirgi holati bu sohada yangi yo'naliishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. O'zbek tilshunoslida XX asr so'nggida shakllanib, jadal rivojlanayotgan tilshunoslik fanining yangi yo'naliishlari sotsiolingvistika, psixolingvistika, sistem tilshunoslik, til va nutqni farqlash, til va millat, jamiyat va til kabi ilg'or fan yo'naliishlari yuzaga keldi. Hozirgi davr tilshunoslida shunday fanlar qatorida insonning, ya'ni erkak va ayolning jamiyatda tutgan o'rni, ularning ruhiy olami va til xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan gender lingvistikasi fani yo'naliishidagi tadqiqotlar kuchaydi. Gender lingvistikating jamiyatda ahamiyati katta. Birgina jinoyat-qidiruv sohasini oladigan bo'lsak, aybdorni izlash jarayonida izquvar uning kimligini aniqlash uchun, avvalo, o'sha jinoyatni qilgan odamning shaxsini hamda jinsini aniqlashga harakat qiladi. Ularning yozuvlari, imzosi, xatti-harakatlari, gapso`zlariga qarab jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanadi. Gender tilshunosligi ana shu muammolarni hal etishda asosiy manbaa bo`lib xizmat qiladi. Til-jamiyat munosabati masalasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish zamonaviy tilshunosliking eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Jamiyat va insoniyat taraqqiyotining o'zi ham tilshunosliking bu kabi yangi soha va yo'naliishlarini taqozo etmoqda. Chunki har ikkijins vakilining o'ziga xos, biribiriga o'xshamaydigan muloqot me'yorlari, so'z va iboralari mavjudki, bularni bilmay turib ularning fikrini, o`y-kechinmalarini anglash qiyin, tushunish, muloqotga kirishish murakkab bo'ladi. Ushbu yo'naliishda ilmiy kuzatishlar olib borish uchun dastlab genderologiyaning nazariy-metodologik asosini to`g'ri uqish, o'zbek tilida bu sohaga oid tushunchaviy apparatni shakllantirish, aynan shu sohaga muvofiq keladigan tadqiq va tahlil

yo`nalishlarini belgilab olish lozim bo`ladi. Ana shundagina o`zbek tilshunosligida mazkur sohaning mustaqil ilmiy yo`nalish sifatida ajralishi va taraqqiy etishiga zamin hozirlanadi

Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o`ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi¹. Insoniyatning uzoq yillik evolyutsiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins o`ziga xos bo`lgan umumiylik hamda farqlarga ega bo`lib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni nazarda tutadi².

O`zbek tilshunosligida gender masalasini alohida muammo sifatida o`rganishga doir tadqiqotlar endi paydo bo`lmoqda. Xususan Sh.Iskandarova ayollar nutqida uchraydigan xos lisoniy birliklarni³, F.Musayeva o`zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi⁴ kabilarni tadqiq qilgan. O`zbek tilshunosligida gender bo'yicha olib borilayotgan ishlar hali yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan, biroq jins tushunchasining ifodalanishiga doir ishlar anchagina. Bu ishlarning asosini albatta erkaklar va ayollar nutqidagi o`ziga xosliklar tashkil etadi. Bu borada R.Lakoff tadqiqotlari natijalariga tayanish o'rinnlidir. Uning fikricha, ayollar nutqida erkaklar nutqidan farqli o'laroq, noziklik, nafosat, mayinlik kabi sifatlar mavjud. Erkaklar nutqiga xos xususiyatlar (masalan, qo'pol va qo'rs gapirish, haqoratlash, jargon va laqablar ishlatish) nozik jins vakillari nutqida kam hollarda uchraydi⁵. Bundan tashqari ayollar nutqida erkalab gapirish, kulish, his-tuyg'uni ifodalovchi so'zlarni ishlatish ko'p uchraydi. Buni "O'tkan kunlar"⁶ romani qahramonlari nutqidan ham bilib olish mumkin.

Masalan :

“Oysha buvi undagi bu o'zgarishlardan so'yindi:

-Yengil tortdingmi, qizalog'im?

-Shukur...

-Endi ortiq urinma qizim, tinch o'l tur.”

“-Nax kechasi bilmabsiz, nax meni qo'rqtib enka-tinkamni chiqardi. Isitma aralash allanuchka so'zlarni aytib chiqdi...”

“-Ey ... singlim, sen hali bilmaysan, -dedi, -u yigitni bir ko'rginda, hu deb ketabergin...”

“-Voy sho'rginanggga sho'rva to'kilgur, Kumush!-dedi Gulsin, -men shunday erni topsam boshim ko'kka tegar edi.”

“-Endi menga mundog' o'g'ul kerakmas... Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim... Endi Toshkandga kelmasin u betiyuq!”

“Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig’lag’an Layli otidan – sizga boshimdag’i sochlarimning tuklaricha behad salom.- Menden -hadd-u hisobsiz gunoh,sizdan -kechirish.”

Ushbu misollarda keltirilgan Oysha buvi,Kumush, Oftoboyim,To’ybeka ,O’zbekoyim kabi qahramonlar nutqi ayollar nutqidagi o’ziga xosliklarning yaqqol namunasi bo’ladi desak yanglishmaymiz.

“Otasining bolasi-da,- dedi Ziyo shohichi.”

“-Ko’b xotin orasida azoblanish nima degan so’z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan.”

“Barakalla g’ayratlarizga,-dedi Azizbek,-bu kun qipchoqlarg’a rustamona javob berib , o’zlarini ham itdek qirdingiz.”

“Rahmat Homid aka, siz jonni ayamasangiz,m-men ham yo’lingizga boshimni tikdim,jamshidning arvoysi!-dedi Mutual polvon.”

“Bizning Mutualboy ham quruq yigit emas,-dedi Sodiq.”

“Mard yigit bo’lsang, qo’limni qo’y !

-Oshiqma , qo’yaman ,-dedi Otobek.”

Keltirilgan bu qahramonlar nutqi esa erkaklar nutqini ayollarnikidan ajratib ko’rsata oldi deb o’ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomova Sh. Qipchoq lahjasidagi iboralarning etnosotsiopragmatik xususiyatlari.Magistr.dar. olish.dissQ.,2013y.
2. Islomova Sh. Ko`rsatilgan manba.
3. Iskandarova Sh. O’zbek nutq odatining muloqot shakllari: f.f.d. nomz.diss... avtoreferati.- Samarqand,1993.-B.19.
4. Musayeva F. O’zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: filol.fanl. bo'yicha fals.dokt.diss. avtoreferat- Toshkent,2019,-B.24.
5. Lakoff.R. Language and Women’s place.-New York: Harper Colophon books,1975.-P.6-64.
6. Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanidan.